

QASHQADARYONING QADIMIY XAZINALARIDAN BIRI YERQO'RG'ON XAROBASI HAQIDA

To'xtayeva Sevinch Ural qizi
Qarshi Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati hududida joylashgan qadimiy Yerqo'rg'on xarobalari taxixiy, arxeologik va ilmiy nuqtayi nazardan o'rganiladi. Maqolada hudud joylashuvi, tarixiy davrlashtirish, topilmalar, arxitektura va arxiologik tadqiqotlar natijalari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tarixiy yodgorlikning qadimgi Nasaf vohasidagi sivilizatsion jarayonlardagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Qarshi, Yerqo'rg'on, Nasaf, Arxiologiya, qadimgi shahar, Qashqadaryo, So'g'd, arxiologik qazishmalar.

Qadimgi shaharlar va arxiologik yodgorliklar o'z davrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida bevosita malumot beruvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati – tarixan So'g'd, Baqtriya va Kushonlar kabi yirik madaniyatlar tutashgan hudud bo'lib, bu yerda joylashgan Yerqo'rg'on xarobalari Markaziy Osiyo shahar sivilizatsiyasining qadimgi markazlaridan biri hisoblanadi.¹⁷ Yerqo'rg'on xarobalari Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumani hududida, Qarshi shahri shimoli-sharqida, qadimiy Zarafshon daryosi irmoqlari yaqinida joylashgan. Uning suv bilan ta'minlanganligi va savdo yo'llariga yaqinligi uni tarixan aholi zich yashagan makonga aylantirgan.¹⁸ Yerqo'rg'onning hududi ichki va tashqi devorlari chegarasida eski shahar xarobalaridan iborat bo'lgan turli xil kattalikdagi balandliklar bilan o'ralgan. Eng katta balandlik hukmdor qasri ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, sitadel (qal'a ichidagi qo'rg'on), shahar ibodatxonasi, maqbara, zardushtiylik ibodatxonasi, hunarmandlar mahallari qazib olinadi. Yerqo'rg'on atrofida butunlay yuqolib ketgan, o'zaro zich joylashgan shahar oldi imoratlari bo'lgan va ilk ming yilliklarning birinch yarmida keng jihozlangan shahar oldi hududi g'arbga tomon Qashqadaryo daryosi sohillarigacha cho'zilgan. Yerqo'rg'ondagi shahar VI asrda eftalitlar davlatini ishg'ol qilish davomida Turk xoqonligi va eron sosoniylarining birlashgan kuchlari tomonidan yoqib yuborilgan va vayron qilingan.

Yerqo'rg'on – qadimgi shahr xarobasi (mil. av. 9-8 asrlar - mil. 6 asr). Qarshi shahridan 10 km shimolda joylashgan. Tarixiy manbalarda Balx, Bolo, Valam, Nashebolo deb tilga olingan. Dastlab Turkiston arxiologiya xavaskorlari tugaragi

¹⁷ Asqarov A. "Qadimgi Nasaf yodgorliklari." Toshkent: Fan, 1973.

¹⁸ Jalilov M. "Qashqadaryo vodiysining shahar madaniyati." Qarshi 1998.

a'zolari (L.I .Zimin, I.Kastanye keyinchalik arxeologlar A.I.Terenojkin (1946), S.K. Kabanov (1946-72 tanaffus bilan , Ya .G'ulomov (1959-64) ,M.E .Masson (1963-64) tekshirishlar olib borgan .1973 yildan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining Qashqadaryo ekspeditsiyasi qazish ishlari olib borgan.Yerqo'rg'on xarobasi qal'a va shahristondan iborat bo'lib ,umumiy maydoni 150 ga ,burjlar bilan mustahkamlangan 2 qator mudofaa devori bilan o'ralgan Ichki devori(balandligi 8 metr gacha) beshburchak tarxli bo'lib taxminan 40 ga maydonni o'ragan atrofi xandaq bo'lgan.Unda qal'a , saroy majmuasi ,ibodatxona , kulollar mahallasi ,turar joylar va boshqalar joylashgan.Kulollar mahallasidan bir necha xona ,ustaxona qazib ochilgan , uning tagidan eng qadimiy mudofaa devori qoldiqlari topildi.Qazish vaqtida sopol idish (xum,,xumcha ,xuqacha,kosalar , tova ,qozon ,tog'ora ,qadax va boshqalar) , diniy marosimlarda ishlatiladigan asboblari , ma'budalarning sopol haykalchalari , Naxshab tangasi (3-6 asrlar),sug'd yozuvina'munalari ,muhr nusxasi topilgan.

Hududda olib borilgan qazishma va stratigrafik tahlillar asosida Yerqo'rg'on quyidagi bosqichlarga ajratiladi.

- a) Eronsimon davr(mil.av. VIII-VI) asrlar Aholi chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan,tosh qurollar va dastlabki sopol buyumlar topilgan
- b) So'g'd –Baqtriya bosqichi(mil.av.IV-mil.I asrlar) Pasxadan ishlangan mustahkam devorlar,savdo uchun tangalar va haykalchalar topilgan .So'g'd yozuvli lavhalar mavjud ¹⁹
- c) Qadimgi Nasaf davri (mil.I-VIII asrlar) Hunarmandchilik savdo aloqalari kuchaygan metal va sopol buyumlar ,mahalliy tangalar topilgan

Yerqo'rg'on shaharchasi shahriston va uning atrofida rabad qismidan iborat bo'lib , shaharning markaziy qismida mudofaa devorlari ,minoralar va markaziy maydon topilgan²⁰.Ichki shahar infratuzilmasi rejalashtirilgan bo'lib diniy obidalar va xunarmandlar ustaxonalari mavjud.Yerqo'rg'onda topilgan asosiy artefaktlar quyidagilardan iborat:

- Haykalchalar-diniy maqsadlarda ishlatilgan terrakota figuralar.
- Sopol idishlar- mahalliy kulollik an'analarini aks ettiradi.
- Tangalar-Yunon-Baqtriya va Kushon tangalari bilan bir qatorda ,mahalliy zarb tangalari mavjud
- Yozuvlar-So'g'diy va ba'zida pahlaviy yozuvidagi lavhalar ,bu hududning savdo va siyosiy aloqalaridan dalolat beradi²¹

¹⁹ Berduyev O. "So'g'diy madaniyati va janubiy hududlar",Toshkent :Manaviyat 2015.

²⁰Nazarov D "Yerqo'rg'on va Janubiy O'zbekiston arxeologiyasi",O'zbekiston tarixi jurnali.2021

²¹ Tursunov B ."Qarshi yaqinidagi qadimiy shaharchalar ", Arxeologiya va etnografiya ,2020

Yerqo'rg'on ilk bor XX asrning 40-5- yillarida A.Asqarov tomonidan o'rganilgan.1970-1980- yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti arshi ekspeditsiyasi tomonidan tizimli qazish ishlari olib borilgan.2000-yildan buyon yodgorlik rasmiy ravishda davlat muhofazasiga olingan.Hozirda Yerqo'rg'on yodgorligi davlat tomonidan muhofaza qilinadi.To'liq restavratsiya ishlari yakunlanmagan bo'lsada arxeologik tadqiqot ishlari davom etmoqda.Bu yodgorlik nafaqat tarixiy ,balki turizm va ilmiy salohiyati yuqori maskan sifatida e'tirof etiladi.Yerqo'rg'on xarobalari qadimgi Nasaf vohasining ijtimoiy-siyosiy hayoti,madaniy taraqqiyoti va shaharsozlik an'analarini aks ettiruvchi noyob yodgorlikdir.Uning chuqur o'rganilishi orqali Markaziy Osiyo tarixining hali to'liq ochilmagan sahifalarini yoritish mumkin.Mazkur yodgorlik ilmiy arxeologik tadqiqotlar uchun katta salohiyatga ega bo'lib ,o'zbek xalqining qadimiy ildizlarini o'rganishda muhim manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Asqarov A. Qadimiy Nasaf yodgorliklari.Toshkent:Fan,1973
- 2.Jalilov M .Qashqadaryo vodiysining shahar madaniyati.qarshi ,1998.
- 3.Berduyev O. "So'g'diy madaniyati va janubiy hududlar",Toshkent :Manaviyat 2015.
- 4.Nazarov D "Yerqo'rg'on va Janubiy O'zbekiston arxeologiyasi",O'zbekiston tarixi jurnali.2021
- 5.Tursunov B ."Qarshi yaqinidagi qadimiy shaharchalar ", Arxeologiya va etnografiya ,2020